

International Scientific Conference

International Conference On  
Teaching, Education And New  
Learning Technologies 2023/2

ISSN: 2181-3515

ERUS.UZ

26 January, 2023 YEAR



PKP | INDEX

Uzbekistan, Tashkent

## “Educational Research in Universal Sciences”



“INTERNATIONAL CONFERENCE ON TEACHING, EDUCATION  
AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES 2023/2”

[www.erus.uz](http://www.erus.uz)

**Languages of publication:** o‘zbek, english, русский, қазақ, тоҷик

**TASHKENT, UZBEKISTAN**

**2023/ JANUARY 26**

## BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA KASBIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH

**Boboyeva Muyassar Norboyevna**

Buxoro davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy sifatlarni shakllantirish to‘g‘risidagi mulohazalar keltirib o‘tilgan va tegishli xulosalar chiqarilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich sinf, o‘qituvchi, kasbiy sifatlarni, ta‘lim-tarbiya, ko‘nikma, malaka, salohiyat, integratsiya, muloqot.

## FORMATION OF PROFESSIONAL QUALITIES IN FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS

**Boboyeva Muyassar Norboyevna**

Bukhara State University

**Abstract:** In this article, comments on the formation of professional qualities in future primary school teachers are made and relevant conclusions are drawn.

**Key words:** elementary school, teacher, professional qualities, education, skills, competence, potential, integration, communication.

Bugungi kunda butun jamiyat zamonaviy oliy ta‘lim ham murakkab islohotlar jarayonini boshidan kechirmoqda. Bu ta‘lim mazmunini takomillashtirish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, ta‘lim sohasi mutaxassislarini tayyorlashga qo‘yilayotgan bugungi kunning sezilarli darajada ortib borayotgan talablariga javob beradigan ta‘lim-tarbiya ishlarining eng samarali shakl va usullarini doimiy izlashda

namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda nafaqat ma’lum bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisiga ega, balki ko‘plab xususiyat va fazilatlariga, boy ichki salohiyatga ega bo‘lgan pedagoglar talab qilinadi.

XXI asr fan va texnikaning rivojlanishi ilm-fanga bo‘lgan talabning oshishiga sabab bo‘lmoqda. Aynan ilm-fan mavqeyini oshirishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining bilimini, mahoratini, ijodkorligini, tashabbuskorligini, izlanuvchanligini, boshqaruvchanligini, kasbiy sifatlarni shakllantirish o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z mutaxassisligini chuqur bilishi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishi, uslubiy modellarni to‘g‘ri tanlash qobiliyati, ta’lim jarayonidagi ta’sir mazmuni va usullarini loyihalashni bilishi zarur. Shundagina yetuk mutaxassis bo‘lishi mumkin.

Y.A.Komenskiy o‘qituvchini yer yuzidagi har qanday kasbdan ko‘ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb deb hisoblab, o‘qituvchiga nihoyatta katta ahamiyat qaratgan. Shu bilan birga uning fikricha har bir o‘qituvchi o‘z kasbining burchi, vazifasi, ma’lumotini to‘g‘ri anglashi lozim deb hisoblagan. U o‘z ishini behad sevishi, o‘quvchilarga bamisoli otalaridek muomala qilishi, ularda bilimga havas tug‘dirishi zarur. “O‘zi namuna ko‘rsatib, o‘quvchilarni o‘ziga ergashtirish o‘qituvchining eng birinchi vazifasidir”.

Pedagogik mahorat tug‘ma talant yoki nasldan-naslga o‘tuvchi xususiyat emas, balki uning negizida izlanish va ijodiy mehnat yotadi. Shuning uchun ham pedagogik mahorat hamma o‘qituvchilar uchun standart, ya’ni bir qolipdagi ish usuli emas, balki u har bir o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadi va rivojlanadi. Bu jarayonda ilg‘or o‘qituvchining pedagogik mahorati va tajribalarini boshqa o‘qituvchi o‘rganishi, undan ijodiy foydalanishi va o‘z faoliyatini ilg‘or tajribalar bilan boyitishi zarur.

Hozirda har bir maktabda ta’lim – tarbiya saramadorligini oshirish jiddiy vazifa bo‘lib turibdi. Buning uchun har bir o‘qituvchi o‘z fanini o‘qitishning eng samarali zamonaviy muammoli texnologiyalarini puxta bilishi va bu sohadagi yangiliklarni

uzluksiz o‘rganib borishi orqali o‘z kasbiy mahoratini muntazam oshirib borishi talab qilinadi. Ta’lim - kelajakdagi muvaffaqiyatlar kaliti ekan, uning mahsuli sifatida bugungi o‘quvchi kelajakda huquqiy-demokratik jamiyat a’zosi sifatida bu jamiyat hayotida to‘laqonli ishtirok eta olishi, zamonning bozor iqtisodiyoti qo‘yayotgan talablariga to‘la javob bera olishi kerak. Umumiy o‘rta-ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirish uchun, jumladan uzluksiz matematik ta’lim tizimi jarayonida pedagogik tajribani o‘rganish va yoyish, zamonaviy muammoli texnologiyalarning nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish zarurdir.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy sifatlarni shakllantirishda o‘qituvchidan sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilishda noan’anaviy usullardan keng foydalangan holda amalga oshirishi talab qilinadi. O‘qituvchida kasbiy sifatlarni rivojlantirish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. O‘qituvchida kasbiy sifatlarni rivojlantirishda turli xil interfaol metodlarni bilishi va o‘zining faoliyati davomida samarali foydalanishi lozim. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib o‘rganish, o‘z ustida tinimsiz ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har bir o‘qituvchi ijodiy o‘z-o‘zini tarbiyalay olishi zarur. Bunda o‘zini o‘ziga xos ijodiy shaxs sifatida anglash, uni yanada takomillashtirish va moslashtirishni talab qiladigan kasbiy va shaxsiy fazilatlarini aniqlash, shuningdek uzluksiz tizimda o‘z-o‘zini takomillashtirishning uzoq muddatli dasturini ishlab chiqish o‘z-o‘zini tarbiyalash demakdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг тадбиқий асослари. Ўқув қўлланма. Т.: 2006. – 163 б.
2. Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева, М.Мирсолиева. Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик. Ўқув-услубий мажмуа.
3. Boboyeva M.N., Qutliyeva Z.O. Formation of elementary mathematical concepts in preschool children. Journal of Global Research in Mathematical Archives. 11:6 (2019), p. 10-12.

59

**XIX ASR IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON  
O‘LKASIDA ME‘MORCHILIK VA UNING O‘ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI**

*Botirov Bobur Bahodir o‘g‘li*

**Page No.: 295-303**

60

**ВОЗДЕЙСТВИЕ ИНДУСТРИИ МОДЫ НА ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ И  
ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ЭКОЛОГИЧНЫЕ МАТЕРИАЛЫ ДЛЯ ОДЕЖДЫ**

*Исаева Махфуза Хамидовна*

**Page No.: 304-310**

61

**INSON VA TABIAT**

*Abdiraximova Maftuna To‘lqinjon qizi., Nabiyeva Gulhayo O‘tkirjon qizi*

**Page No.: 311-314**

62

**“PARIJDAN ERONGACHA: LAMARTINNING TUSHUNISHGA  
INTILISHI YOXUD SHARQ MAMLAKATLARI VA XALQLARINI  
TADQIQ QILISHI”**

*Sharopova Safiya Begmat qizi*

**Page No.: 315-319**

63

**НИТРАЗОНИЙ ЖЕЛТЫЙ РЕАГЕНТИ ЁРДАМИДА БАЪЗИ ОГИР  
МЕТАЛЛ ИОНЛАРИ УЧУН ТЕСТ УСУЛИНИ ЯРАТИШ**

*Гулбоева Дилафруз Рузибоевна., Тураева Хонзода Гофур кизи*

**Page No.: 320-322**


64

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARIDA KASBIY  
SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH**

*Boboyeva Muyassar Norboyevna*

**Page No.: 323-325**

## “Educational Research in Universal Sciences”



## “INTERNATIONAL CONFERENCE ON TEACHING, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES 2023/2”

[www.erus.uz](http://www.erus.uz)

**Languages of publication:** o‘zbek, english, русский, қазақ, тоҷик

**TASHKENT, UZBEKISTAN**

**2023/ JANUARY 26**